



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

TURLI TIZIMLI TILLARDA O'LCHOV-DARAJA KOMPONENTLI GIPOTAKSEMALAR TIPOLOGIYASI

Nazarova Sevaraxon Jaxongir qizi
Andijon davlat chet tillari instituti, o'qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada tilshunoslikning dolzarb mavzulardan biri – turli tizimli tillarda o'lchov-daraja komponentli gipotaksemalarning tipologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'lchov-daraja gipotaksemalarni bog'lovchi vositalar va sintaktik bog'lanish xususiyatlari, shuningdek, ularning tillardagi izomorf va allomorf xususiyatlari batafsil o'rganiladi. Olingan natijalar turli tillardagi o'lchov-daraja gipotaksemalarining umumiy va o'ziga xos qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: tipologiya, gipotaksema, o'lchov-daraja komponenti, sintaktik bog'lanish, subordinatsiya, struktur-semantik tashkilot, izomorf va allomorf xususiyatlari.

ТИПОЛОГИЯ ГИПОТАКСЕМ С КОМПОНЕНТОМ МЕРЫ И СТЕПЕНИ В ЯЗЫКАХ РАЗНЫХ ТИПОВ

Назарова Севарахон Жахонгир кизи
Андижанский государственный институт иностранных языков, преподаватель

Аннотация

В данной статье рассматривается одна из актуальных проблем в лингвистике — типологические особенности гипотаксем с компонентом меры и степени в разносистемных языках. В ходе исследования анализируются соединительные средства и синтаксические связи данных конструкций, а также их изоморфные и алломорфные особенности. Полученные результаты позволяют выявить общие и специфические закономерности гипотаксем с компонентом меры и степени в различных языках.

Ключевые слова: типология, гипотаксемы, компонент меры и степени, синтаксическая связь, субординация, структурно-семантическая организация, изоморфные и алломорфные особенности.

TYOLOGY OF HYPOTAXEMES WITH MEASURE-DEGREE COMPONENTS IN TYPOLOGICALLY DIFFERENT LANGUAGES

Nazarova Sevarakhon Jakhongir qizi
Andijan State Institute of Foreign Languages, Teacher

Abstract

This article discusses one of the important issues in linguistics – the typological characteristics of hypotaxemes with an adverbial component of measure and degree in non-related languages. The study analyzes the means of connection and syntactic relations of these constructions, as well as their isomorphic and allomorphic features. The results obtained make it possible to identify the general and specific patterns of measure-degree hypotaxemes in different languages.

Keywords: typology, hypotaxemes, adverbial component of measurement and degree, syntactic relationship, subordination, structural-semantic organization, isomorphic and allomorphic features.

Zamonaviy tilshunoslikda qiyosiy metod asosida olib borilayotgan ilmiy-nazariy tadqiqotlar sintaksisning asosiy yoʻnalishlaridan hisoblangan murakkab sintaktik birliklar — gipotaksemlar (ergash gapli qoʻshma gaplar) doirasida ham keng amalga oshirilmogʻda. Bunda asosiy eʼtibor ularning struktur-semantik, kommunikativ-pragmatik va stilistik xususiyatlariga qaratilmogʻda. Qoʻshma gaplarni oʻrganish bilan bir qatorda, qardosh va qardosh boʻlmagan tillar sintaksisini qiyosiy-tipologik asosda tadqiq qilish ham rivojlanib bormogʻda. Bu yoʻnalishda german tillari — ingliz va nemis, turkiy tillar, shuningdek, ingliz va oʻzbek tillari kabi turli tizimli tillar kesimida olib borilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmogʻda. Shu bilan birga, anʼanaviy qoʻshma gap turlari bilan bir qatorda, yangi tipdagi sintaktik birliklar ham tipologik tahlil obyektiga aylanmogʻda. Jumladan, oʻlchov-daraja komponentli gipotaksemlar (ergash gapli qoʻshma gaplar) ham shunday kam oʻrganilgan birliklar sirasiga kiradi.

Metodologiya. Oʻzbek tilshunosligida qoʻshma gaplarning struktur-semantik jihatlari ilmiy asosda Gʻ.A. Abdurahmonov tomonidan chuqur oʻrganilgan. Tilshunos qoʻshma gaplarni struktur jihatdan uch turga ajratadi (bogʻlovchisiz, bogʻlangan, ergash gapli qoʻshma gaplar), shuningdek, u ergash gapli qoʻshma gaplarning mazmunan 13 turga boʻlinishini taʼkidlaydi: aniqlovchi, toʻldiruvchi, ega, kesim, payt, oʻrin, sabab, shart, maqsad, toʻsiqsiz, natija, ravish, qiyoslash ergash gapli qoʻshma gaplar [1:394]. Shuni taʼkidlash kerakki, bizning tadqiqot obyektimiz ushbu ergash gaplarning oʻlchov-daraja komponentli turi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Tilshunos Gʻ.M. Hoshimov tomonidan ilk bor turli tipologik guruhga mansub tillarda qoʻshma gaplar sintaksisining nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Monografiyada qoʻshma gaplar kvalitatif-kvantitativ yondashuv asosida tahlil qilingan boʻlib, ularning sintaktik bogʻlanish turlari va usullari, koordinator va subordinatlar semantikasi, komponentlarning maqomi, qoʻshma gaplarning yangi taksonomiyasi ishlab chiqilgan. Tadqiqotda sintaktik birliklarning kommunikativ turlari terminologik apparati, shuningdek, taksemik birliklar (monotaksemlar va politaksemlar) metatili yaratilgan. Tadqiqotda birinchi marta adverbial komponentli (payt, sabab, shart, maqsad) gipotaksemlarning maqomi oʻrnatilib, sintaktik universalialar, frekventialialar, implikatsiyalar, retsessivlar, unikalialar aniqlangan va shu asosda tillarning yangi sintaktik-tipologik tasnifi taklif etilgan [2:54].

M.A. Asqarova muayyan ergash gapli qoʻshma gaplar turlarini tadqiq qilgan ekan, oʻlchov-daraja komponentli gipotaksemlar bosh gapdagi harakat yoki holatning darajasi yoxud miqdorini aniqlash uchun ishlatilishini taʼkidlaydi. Bunday qoʻshma gaplarda erishilgan daraja yoki miqdor koʻpincha nisbat yoki taqqoslash orqali ifodalanadi [3:128]. Misol uchun, oʻzbek adabiyotidagi asarlarda: “U shu qadar xursand ediki, hatto Joʻraxonning nazarida, shu topda oʻziga ham oʻxshamas, yosharib, chiroyli boʻlib ketgan edi” (A. Muxtor) jumlasini oʻlchov-daraja komponentli gipotaksemlarning aniq ifodalanishiga misol boʻladi. Bunday gipotaksemlarda erishilgan daraja yoki holatni koʻrsatadigan komponentlar koʻpincha sinonim yoki izofaviy (taqqoslash) soʻzlar yordamida bogʻlanadi. Shuningdek, bu konstruksiyalar bosh gapning feʼl shakli va turli subordinatsiya vositalari orqali bogʻlanadi. Gipotaksemlarning baʼzi turlari antonim soʻzlar bilan ham ifodalanishi mumkin, bu esa semantik rang-baranglikni yuzaga keltiradi. Masalan, “Mehnat qanchalik qiyin boʻlsa, samarasi shunchalik shirin boʻladi” kabi ifodalar oʻlchov-daraja gipotaksemlarining imkoniyatlarini kengaytiradi.

Y.O. Salnikovaning tadqiqot ishida oʻlchov-daraja ergash gapli qoʻshma gaplarning struktur-semantik xususiyatlari aniqlanadi va tavsiflanadi. Bundan tashqari, bosh gap va ergash gapning oʻzaro semantik aloqasini taʼminlovchi bogʻlovchi va nisbiy soʻzlar korpusi oʻrnatilib, tahlil qilinayotgan qoʻshma gaplarning semantik xususiyatlarini ifodalovchi leksik vositalar tavsiflanadi [4:10].

N.Sh. Rahmonovanning ilmiy tadqiqot ishida birinchi marta hol ergash gapli qoʻshma gaplar formal-sintaktik nuqtayi nazardan tojik, rus va ingliz tillarida qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, ishda hind-yevropa tillarida lingvistik universallikni ifodalovchi ergash gaplarning oʻxshashlik va farqlari qayd etilib, ularning semantik-kognitiv tabiati yoritib berilgan. Ishning

yutug‘i shundan iboratki, olim tojik tili materiali asosida ergash gaplarni ifoda maqsadiga ko‘ra tasniflab, rus va ingliz tillarida ular o‘rtasidagi aloqa vositalarini qiyosiy talqin qiladi [5:38].

Van Valin, R.D. o‘z tadqiqotida bosh gap va hol ergash gaplarning joylashuvini tillararo tahlil qiladi. Muallif 40 ta til namunasi asosida bosh gap va hol ergash gaplarning joylashuvi ergash gapdagi subordinatrlarning gapdagi o‘rni bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Subordinator postpozitsiyada keladigan tillarda hol ergash gaplar odatda bosh gapdan oldin keladi, aksincha, subordinatrlari prepozitsiyada kelgan tillarda hol ergash gaplar ko‘pincha gapning boshida yoki oxirida joylashadi. Ikkinchi til turida hol ergash gapning joylashuvi uning ma‘nosi yoki funksiyasiga qarab o‘zgaradi: shart ergash gaplar payt ergash gaplardan ko‘proq bosh gapdan oldin keladi, payt ergash gaplar esa odatda sabab, natija va maqsad ergash gaplardan oldin keladi [6:12].

K.J. Sæbøning fikriga ko‘ra, qo‘shma gap bir bosh gap va bir yoki bir necha ergash gaplardan iborat bo‘ladi. Bosh va ergash gaplarning yaxlit tuzilma bo‘lib kelishi bog‘lovchilar ishtirokida sodir bo‘ladi. Olim qiyoslanayotgan tillardagi ergash gapli qo‘shma gaplarning bog‘lovchili turlari, ya‘ni to‘ldiruvchi, aniqlovchi, payt, shart, sabab, natija, maqsad, qiyoslashchog‘ishtirish, to‘siqsizlik va o‘rin ma‘nolarini ifodalovchi hol ergash gaplarning struktur-semantik turlari bir xil ekanligini ta‘kidlaydi, lekin olimning turkiy tilda o‘rin holini istisno tariqasida ko‘rsatishi aniq izohlanmagan [6:9].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, turli tipologik guruhga mansub tillarda ergash gapli qo‘shma gaplarning umumiy va xususiy jihatlari ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Xususan, qo‘shma gaplarning strukturaviy, semantik hamda funksional xususiyatlari, ularning komponentlari o‘rtasidagi munosabatlar, bog‘lanish vositalari va tipologik tasnifi borasida muhim ilmiy natijalarga erishilgan. Biroq mazkur tadqiqotlarda e‘tibor asosan payt, sabab, shart, maqsad kabi keng tarqalgan adverbial komponentli gipotaksemlarga qaratilgan bo‘lib, o‘lchov-daraja komponentli gipotaksemlar masalasi nisbatan cheklangan doirada yoritilgan.

Muhokama. Adverbial komponentli gipotaksemlar (masalan, vaqt, sabab, shart, maqsad) tillar kesimida turlicha realizatsiya qilinadi. Ular sintaktik jihatdan bog‘lovchilar yordamida bog‘lanadi, ba‘zi tillarda esa subordinatsiya vositalari sifatida affikslar yoki postpozitsiyalar ham ishlatiladi. Tadqiqotda taqdim etilgan ma‘lumotlar o‘zaro taqqoslashlar orqali gipotaksemlarning turli tillarda o‘xshashlik va farqlarini aniq ko‘rsatadi. Misol uchun, ingliz, o‘zbek va rus tillarida o‘lchov-daraja gipotaksemlarining sintaktik va semantik strukturalari umumiy, lekin har bir til o‘ziga xos subordinatsiya tizimlarini qo‘llaydi. Bu farqlar nafaqat sintaktik bog‘lanish vositalariga, balki lingvistik xususiyatlarga ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Quyidagi jadvalda turli tillarda o‘lchov-daraja gipotaksemlarining sintaktik bog‘lanish va subordinatsiya vositalari tizimli ravishda aks ettirilgan. Jadvalda har bir til kesimida ushbu konstruksiyalarning ifodalanishiga xizmat qiluvchi misollar, ularni bog‘lovchi vositalar (bog‘lovchilar, bog‘lovchi vazifasidagi birliklar, predloglar, affikslar, yuklamalar) hamda mazkur vositalarning gap tarkibidagi joylashuvi tahlil etilgan.

O‘lchov-daraja komponentli gipotaksemlar tipologiyasi

T/r	Tillar	Misollar	GPT	Monotaksema	Bog‘lovchi	BVS	Predlog	Poslelog	Yuklama	Affiks	Bog‘lovchisiz	Prepozitsiya	Interpozitsiya	Postpozitsiya
1	Ingliz	1) The old man lifted the harpoon as high as he could. (E. Hemingway, <i>The Old Man and the Sea</i> , 27.) 2) The old man lifted the harpoon as high	+	+	-	+	-	-	-	-	-	-	+	-

		as possible.												
2	Nemis	1) Der alte Mann hob die Harpune so hoch, wie er konnte. (E. Hemingway, <i>Der alte Mann und das Meer</i> , 27.) 2) Der alte Mann hob die Harpune so hoch wie möglich.	+	+	-	+	-	-	-	-	-	-	+	-
3	Daniya	1) Den gamle mand løftede harpunen så højt, som han kunne. (E. Hemingway, <i>Den gamle mand og havet</i> , 27.) 2) Den gamle mand løftede harpunen så højt som muligt.	+	+	-	+	-	-	-	-	-	-	+	-
4	Shved	1) Den gamle mannen lyfte harpunen så högt, som han kunde. (E. Hemingway, <i>Den gamle mannen och havet</i> , 27.) 2) Den gamle mannen lyfte harpunen så högt som möjligt.	+	+	-	+	-	-	-	-	-	-	+	-
5	Fransuz	1) Le vieil homme leva le harpon aussi haut qu'il le pouvait. (E. Hemingway, <i>Le vieil homme et la mer</i> , 27.) 2) Le vieil homme leva le harpon aussi haut que possible.	+	+	-	+	-	-	-	-	-	-	+	-
6	Italyan	1) Il vecchio sollevò l'arpione più in alto che poteva. (E. Hemingway, <i>Il vecchio e il mare</i> , 27.) 2) Il vecchio sollevò l'arpione il più in alto possibile.	+	+	-	+	-	-	-	-	-	-	+	-
7	Ispan	1) El viejo levantó el arpón tan alto como pudo. (E. Hemingway, <i>El viejo y el mar</i> , 27.) 2) El viejo levantó el arpón lo más alto posible.	+	+	-	+	-	-	-	-	-	-	+	-
8	Portugal	1) O velho levantou o arpão tão alto quanto pôde. (E. Hemingway, <i>O velho e o mar</i> , 27.) 2) O velho levantou o arpão o mais alto possível.	+	+	-	+	-	-	-	-	-	-	+	-
9	Rus	1) Старик поднял гарпун так высоко, насколько хватило его сил. (Э. Хемингуэй, <i>Старик и море</i> , 27.) 2) Старик поднял гарпун как можно выше.	+	+	-	+	-	-	-	-	-	-	+	-
10	Ukrain	1) Старий підняв гарпун так високо, наскільки вистачило його сил. (Е. Гемінгвей, <i>Старий і море</i> , 27.) 2) Старий підняв гарпун якнайвище.	+	+	-	+	-	-	-	-	-	-	+	-
11	Belarus	1) Стары падняў гарпун так высока, наколькі хапіла яго сіл. (Э. Хэмінгуэй, <i>Стары і мора</i> , 27.) 2) Стары падняў гарпун як мага вышэй.	+	+	-	+	-	-	-	-	-	-	+	-
12	Chex	1) Stařec zvedl harpunu tak vysoko, jak mu stačily síly. (E. Hemingway, <i>Stařec a moře</i> , 27.)	+	+	-	+	-	-	-	-	-	-	+	-

		2) Stařec zvedl harpunu co nejvŕyše.												
13	O'zbek	1) Chol garpunni kuchi qanchaga yetsa, shuncha baland ko'tardi. (E. Hemingway, <i>Chol va dengiz</i> , 27.) 2) Chol garpunni kuchi yetgancha baland ko'tardi.	+	+	-	+	-	-	-	+	-	-	+	-
14	Turk	1) Yaşlı adam zıpkını gücü ne kadar yettiyse, o kadar yüksek kaldırdı. (E. Hemingway, <i>İhtiyar Adam ve Deniz</i> , 27.) 2) Yaşlı adam zıpkını gücü yettiğince yükseğe kaldırdı.	+	+	-	+	-	-	-	+	-	-	+	-
15	Qozoq	1) Қарт гарпунды күші қанша жетсе, сонша биік көтерді. (Э. Хемингуэй, <i>Шал мен теңіз</i> , 27.) 2) Қарт гарпунды күші жеткенше биік көтерді.	+	+	-	+	-	-	-	+	-	-	+	-
16	Qirg'iz	1) Чал гарпунду күчү канча жетсе, ошончо бийик көтөрдү. (Э. Хемингуэй, <i>Чал жана деңиз</i> , 27.) 2) Чал гарпунду күчү жеткенче бийик көтөрдү.	+	+	-	+	-	-	-	+	-	-	+	-
17	Xitoy	1) 老人把鱼叉举得尽可能高。 (海明威, 《老人与海》, 27.) Lǎorén bǎ yúchā jǔ de jìn kěnéng gāo 2) 老人把鱼叉举到最高。	-	+	-	-	-	-	-	-	+	+	-	-
18	Tay	1) ชายชรายกมวกขึ้น สูงเท่าที่ เขาทำได้ (เฮมิงเวย์, <i>ชายชรากับทะเล</i> , 27.) sung thao-thi khao tham dai 2) ชายชรายกมวกขึ้นให้สูงที่สุด	+	+	-	+	-	-	-	-	-	-	+	-
19	Yapon	老人はできるだけ高く錨を持ち上げた (ヘミングウェイ, <i>老人と海</i> , 27.) dekiru dake takaku mori o mochiageta	-	+	-	-	-	-	-	-	+	+	-	-
20	Koreys	노인은 작살을 최대한 높이 들었다 (헤밍웨이, <i>노인과 바다</i> , 27.) choedaehan nop-i deureotta	-	+	-	-	-	-	-	-	+	+	-	-

Natijalar. Tahlil uchun tanlab olingan turli til oilalariga mansub 20 ta til materiallari asosida o'lchov-daraja komponentli gipotaksemalarning strukturaviy-semantik xususiyatlari qiyosiy jihatdan o'rganildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, tadqiq etilgan tillarning 17 tasida o'lchov-daraja komponentli gipotaksemalar faol qo'llanadi va ular bosh hamda ergash komponentlar o'rtasidagi subordinativ munosabat orqali ifodalanadi. Shu bilan birga, mazkur mazmunni ifodalovchi o'lchov-daraja holi barcha tillarda mavjud bo'lib, u nafaqat qo'shma gap tarkibida, balki sodda gap konstruksiyasi doirasida ham keng qo'llanishi aniqlanadi. Biroq ayrim tillarda, xususan, xitoy, yapon va koreys tillarida o'lchov-daraja komponentli gipotaksemalar kuzatilmaydi. Mazkur tillarda o'lchov-daraja ma'nosi asosan sodda gap shaklida, ya'ni morfosintaktik vositalar orqali ifodalanadi. Bu holat ularning sintaktik tizimida analitik konstruksiyalarning ustunligini ko'rsatadi va subordinativ bog'lanishning boshqa tillarga nisbatan cheklanganligini namoyon etadi.

Tahlil shuningdek, barcha tillarda sof ergashtiruvchi bog'lovchilardan ko'ra, bog'lovchi

vazifasini bajaruvchi birliklar (nisbiy soʻzlar, qiyoslov konstruksiyalar, kompleks birliklar) ustun qoʻllanishini koʻrsatdi. Yaʼni, oʻlchov-daraja munosabatlari koʻpincha “so... as”, “so... wie”, “tan... como”, “qanchalik... shunchalik” kabi korrelyativ birliklar orqali ifodalanadi. Bu esa mazkur konstruksiyalarning semantik jihatdan qiyoslash va nisbatlash asosida shakllanishini tasdiqlaydi. Bogʻlovchi vositalarning gapdagi joylashuvi tahlili natijasida interpozitsiya barcha tillarda dominant ekanligi aniqlandi. Yaʼni, bogʻlovchi elementlar koʻpincha bosh va ergash komponentlar orasida joylashib, ularning oʻzaro sintaktik va semantik aloqasini taʼminlaydi. Shu bilan birga, ayrim tillarda postpozitsion yoki affiksial vositalar ham kuzatiladi (masalan, turkiy tillarda), bu esa tillararo allomorf xususiyatlarning mavjudligini koʻrsatadi.

Xulosa. Tahlil qilingan natijalarni umumlashtirib aytish mumkinki, turli tizimli tillarda oʻlchov-daraja komponentli gipotaksemlarning umumiy semantik asosi — qiyoslash va nisbatlash munosabatiga tayanishi ularning izomorfik xususiyatlarini tashkil etadi. Shu bilan birga, ularning ifodalanish vositalari va grammatik shakllari tillar kesimida allomorfik jihatlar tarzida namoyon boʻladi. Aksariyat tillarda ushbu konstruksiyalar bogʻlovchi vazifasidagi birliklar orqali va interpozitsiya holatida ifodalanishi bilan xarakterlanadi. Xitoy, yapon va koreys tillarida esa oʻlchov-daraja mazmunining sodda gap doirasida ifodalanishi ularning tipologik oʻziga xosligini koʻrsatadi. Bu holatlar oʻlchov-daraja gipotaksemlarining universal va unikal jihatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Абдурахмонов Ф. А. Ўзбек тили грамматикаси. Т. 2: Синтаксис. — Тошкент: Фан, 1976. — 560 б.
2. Хошимов Г. М. Проблемы общей и типологической теории сложного предложения. — Андижан, 2025. — 229 с.
3. Асқарова М. А. Ҳозирги ўзбек тилида эргашиш формалари ва эргаш гаплар. — Тошкент: Фан, 1966. — 345 б.
4. Сальникова Ю. О. Сложноподчиненные предложения с придаточным качества, меры и степени признака: автореф. дис. ... канд. филол. наук. — Воронеж, 2010. — 34 с.
5. Рахмонова Н. Ш. Семантическая структура сложноподчиненного предложения в системе синтаксиса: лингвокогнитивный подход (на материале таджикского, русского и английского языков): автореф. дис. ... д-ра филол. наук. — Душанбе, 2017. — 53 с.
6. Van Valin R. D. The acquisition of complex sentences: a case study in the role of theory in the study of language development. — Buffalo: University at Buffalo, 2001. — 38 p.
7. Sæbø K. J. Adverbial clauses // Semantics: an international handbook of natural language meaning. — Berlin: De Gruyter Mouton, 2011. — P. 22.